

Toshkent shahar hokimi isitish mavsumini boshlash to'g'risidagi qarorga imzo chekdi



Toshkent shahar hokimining 2017-yilning 7-noyabrda imzolangan "Toshkent shahrida 2017-2018-yilgi isitish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va issiqlik energiyasi bilan ta'minlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 10-noyabrdan boshlab ijtimoiy soha obyektlarida, 12-noyabrdan turar-joy binolarida muntazam isitishga kirishiladi. Bu haqda Toshkent shahar hokimligining [rasmiy sayti](#) xabar berdi.

Ushbu qarorga ko'ra, "TOSHKENT ISSIQLIK ELEKTR MARKAZI" AJ, "Toshkent issiqlik markazi" DUK, "Toshissiqquvati" DUKga markazlashgan issiqlik tizimining barcha qismlarini tekshirish imkoniyatini ta'minlash uchun 2017 yil 9 noyabrdan Toshkent shahar issiqlik manbalaridan issiqlik muhitining aylanma harakatini ishga tushirish vazifasi topshirildi.

Shuningdek, "TOSHKENT ISSIQLIK ELEKTR MARKAZI" AJ, "Toshkent issiqlik markazi" DUK, "Toshissiqquvati" DUKga Toshkent shahrida 2017-2018 yilgi isitish mavsumi davrida uzluksiz tabiiy gaz, suv ta'minoti va elektr energiyasini yetkazib berish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklatildi.

Toshkent shahar Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari uyushmasiga ko'p kvartirali uylarda issiqlik ta'minoti tizimining barqaror ishlashi uchun mutasaddi xodimlar va aholi tomonidan qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslikni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.